



ANTIK DAVR XORAZM KULOLCHILIGI XUSUSIDA

Matyaqubov Elyorbek Amonbayevich

IV Xorazm akademik litseyi “Ijtimoiy-gumanitar va huquqiy fanlar” kafedrasiga

Tarix fani katta o’qituvchisi

Xorazm vohasi jahon sivilizatsiyasi o’choqlaridan biri bo’lib, bunga vohada olib borilgan arxeologik va etnografik tadqiqotlar natijasida qo’lga kiritilgan ashyolar guvohlik beradi. Mazkur hududda hunarmandchilik, xususan, kulolchilik taraqqiyotini Qo’yqirilganqa’lada olib borilgan tadqiqotlar davomida yuqoridagi sohaning qa’ladagi o’rni va rolini ko’rishimiz mumkin.

Ushbu yodgorlik Qoraqalpog’iston Respublikasining To’rtko’l shahridan 12 km shimoli-sharqda joylashgan bo’lib, yodgorlik S.P.Tolstov rahbarligida Xorazm arxeologiya va etnografiya ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan topilib, 1951 – 1957 yillarda qazish ishlari olib borildi va olingan ashyolarga qarab, mazkur qa’la qurilishi ikki tarixiy davrga oid bo’lib, uning birinchi qavati mil. avv IV-III asrlar, o’rta va yuqori qismi esa milodning I- IV asrlariga mansubligi aniqlangan¹.

S.P.Tolstov rahbarligida olib borilgan tadqiqotlar natijasida qazib olingan sopol idishlar ikki guruhga: ilk va so’nggi qang’uy davri idishlariga ajratilgan. Ilk qang’uy davri mil.avv. IV-II asr, so’nggi qang’uy davri esa mil.avv. II-I asrlarni o’z ichiga oladi. Ilk qang’uy davriga oid sopol idishlar xilma-xil bo’lib, ular turli ko’rinishdagi xum va xumchalar, dastasi arslon boshini eslatuvchi uzun bo’yli ko’zalar, tasviriy san’at namunalari tushirilgan suvdon (flyaga)lar, pastki qismi ot,

¹ Воробьева М.Г. Кой-крилган каъла – памятник культуры древнего Хорезма. IV в. до н.э.- IV в.н.э. ТХАЕЕ, т V, М., “Наука”, 1967, С 86



tuya boshini yoki grifon obrazini aks ettiruvchi sopol riton (qadax)lardan iborat bo'lgan².

Qo'yqirilganqa'lidan topilgan sopol idishlarning bejirimligi va xilma xilligiga qaraganda ushbu idishlar ko'proq aholining hukmdor tabaqalariga yoki nozik didli xaridorlarga maxsus tayyorlangan bo'lishi mumkin. Chunki "sirti laq bilan sirlangan qadaxsimon kosalar, qalin xumlar" kabi kulolchilikning yangi turdag'i sopol ididshlari "asosan qa'la va katta uylarda uchraydi³".

Qo'yqirilganqa'la qo'lida va qo'l charxida ishlangan, shuningdek, yangi texnikani qo'llab, oyoq charxi bilan tayyorlangan kulolchilik tiplarining rivojlanishini juda aniq ko'rsatib beruvchi o'ziga xos yodgorlik ekanligini arxeolog Y.G'.G'ulomov⁴ o'z asarida ta'kidlab o'tadi.

Antik davrdagi sopol idishlarni qiyofasi va rangiga e'tibor beriladigan bo'lsa, kundalik xo'jalikda qo'llaniladigan har qanday sopol idishning sirti qizil yoki to'q jigarrang angob bilan bo'yalgan, shuningdek, idish sirtini quyuq yoki silliq bo'yash bilan bir qatorda, yaltiratish maqsadida uni lak bilan sirlash jihatiga ham keng ahamiyat berilgan. Angob - tayyorlangan sopol mahsulotlarning namligida sirtini qoplash uchun mo'ljallangan keramik massa bo'lib, sopol idishlarning ba'zan yuqori yoki butunlay hamma qismi angoblangan⁵.

Qa'lada kulolchilik charxisiz ishlangan buyumlar asosan yuqori sifatli och qizilrang va turli xil tipdagi sopol buyumlar ishlangan. Ushbu buyumlar keng tusda uchraydigan qoramtil-kulrang boshqa kulolchilik buyumlaridan keskin farq qilgan. Charxda (qo'l charxi) yasalgan kulolchilik idishlari asosan katta hajmdagi

² Толстов С.П. Работы Хорезмской экспедиции АН СССР ПО раскопкам памятника IV-III вв. до н.э. - Кой-крилган каъла, ВДИ.1953. С 160

³ G'ulomov Y.G'. Xorazmning sug'orilish tarixi. – Т.:, 1959, В 83

⁴ O'sha adabiyot, В 83

⁵ Рахимов М.К. Опыт творческого освоения поливной керамики. – Т.: Гафур Гулям. 1983. – С 192



xumlardan iborat bo'lib, ularning sirtlariga deyarli to'g'ri chiziq bo'ylab gorizontal kungiralar tushirilgan, og'zi keng va chambari jimjimador va yassi hisoblangan⁶.

Yuqorida sanab o'tilgan ikki tipdagi kulolchilik buyumlari shahar ichida ko'p uchraydi.

Antik davr kulolchilik ustaxonasi izlari Qo'yqirilganqal'a atrofida aniqlangan. Pech qoldiqlariga ko'ra, ular dumaloq shaklda ikki yarusli bo'lган. Pastki o'choq kamerasini yerdan kovlaganlar va uni yuqori o'choq bilan, issiqlik o'tkazuvchi kanallari bo'lган – ikki kamerani ajratib turuvchi disk shaklidagi somon plita tuynuklarni bog'lab turgan. Tayyor mahsulotni pishirishga mo'ljallangan yuqori kameralar saqlanib qolmagan. Kulollarning mahallalari va kulolchilik o'choqlari Jonbosqal'a, Qo'yqirilganqal'a atrofida, Qanqaqal'a, Qalaliqal'a, Ko'zaliqir, Xozarqal'a atroflaridan ham topilgan. Eng qadimgi kulolchilik mahallasi bu Ko'zaliqirdagi mahalladir. Bu ishlab chiqaruvchi kompleks juft joylashgan sakkizta o'choqni o'z ichiga oladi. O'choqlar ikki yarusli bo'lib, ularning tuzilishi arxaik o'choqchalarga o'xshaydi⁷.

Pishiriladigan kameralar xom loydan qurilgan, ba'zi hollarda aftidan kovlangan yerostida noto'g'ri gumbaz shaklidagi o'choq kameralar qurilgan. Ishlanadigan lyuk (tuynuk) topka (o'choq) tomondan birlashadigan joyga qarama-qarshi joylashgan. Kushon davri xumbuzlari ham xuddi shu konstruktsiyani takrorlaydi. Lekin katta hajmli pishirish kamerasi bilan, murakkab sistemali issiqlik o'tkazuvchi kanallarning mavjudligi bilan va ancha tor va cho'zilgan o'choq kamerasi bilan ajralib turadi. Kulolchilik ustaxonasi izlari Xorazmning ko'plab boshqa rayonlarida kulolchilik buyumlarining uyumi asosida aniqlangan⁸.

⁶ O'sha adabiyot, B 81

⁷ Totstov S.P. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab, 1966, B 94

⁸ O'sha adabiyot, B 95



Mil.avv. IV asr – milodiy II asrga taalluqli kulolchilik buyumlari Xorazm viloyatining Amudaryo qirg’og’i bo’ylab 1 km.ga cho’zilgan hududlarda uchraydi.

Kulollar, shuningdek, sopol haykalchalar ham ishlab chiqarganlar. Agar ularni ishlab chiqarish uchun zarur bo’lgan qoliplarni tayyorlash mutaxassis ustalarning vazifasi bo’lsa, ana shu qoliplar yordamida buyumlar tayyorlash esa oddiy kulol – ustaning vazifasi bo’lgan. Ammo sujetli kompozitsiyalar bilan ishlov berilgan suyak haykalchalar va plastinkalar chamasi mahalliy ustalarning mahsulotlari emas, balki chetdan keltirilgandir. Antik davrga xos bo’lgan toshdan ishlangan buyumlarning tipik shakllariga uncha katta bo’lmagan parfumeriya idishchalari, silindrsimon quticha-piksidlar kiradi. Ular Qang’ davri qatlamlarida topilgan bo’lib, Ahamoniylar Eroni buyumlariga o’xshab ketadi. Shuningdek, Kushonlar davrida paydo bo’lgan yarim sferik chuqurchaklı to’g’riburchakli idishlar ham diqqatga sazovor. Bu idishlarning qanday holatlarda ishlatilganligi noma’lum⁹.

Demak, antik davrga kelib Xorazmda hunarmandchilikning kulolchilik tarmog’ida sopol buyumlarning shakli o’zgarib, idishlarga ishlov berishda sirlash usuli, oyoq charxidan foydalanib sopol buyumlar yasash keng qo’llanila boshlangan. Shuningdek, sopol idishlarga tushirilgan turli mazmundagi sujetlar qadimiylar Xorazm aholisining tasviriy san’atdan boxabar bo’lganligidan dalolat beradi.

Yuqorida keltirilgan kulolchilik tarmog’ining taraqqiyoti IV asrdan boshlab susaya boshladi, chunki ayni shu davrda boshlangan “xalqlarning buyuk ko’chishi” va IV-V asrlarda Amudaryo suv oqimining o’zgarishi va bu bilan bog’liq holda chap qirg’oq Xorazm hamda shimoliy-g’arbiy Turkmaniston yerlarining qurib qolishi Xorazmning butun iqtisodiy-ijtimoiy hayotiga kuchli ta’sir qilib, ishlab chiqarish hayotida tushkunlik davri boshlandi va faqatgina bu tushkunlik

⁹ Толстов С.П. Древний Хорезм. М., “Наука” 1948, С104



rivojlangan o’rta asrga kelib barham topib, jamiyatning ishlab chiqarish hayotida jonlanish yuzaga kela boshlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Воробьева М.Г. Кой-крилган каъла – памятник культуры древнего Хорезма. IV в. до н.э.- IV в.н.э. ТХАЕЕ, т V, М., “Наука”, 1967, С 86
2. Толстов С.П. Работы Хорезмской экспедиции АН СССР ПО раскопкам памятника IV-III вв. до н.э. - Кой-крилган каъла, ВДИ.1953. С 160
3. Totstov S.P. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab, 1966, В 94
4. Толстов С.П. Древний Хорезм. М., “Наука” 1948, С104